

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

“LUG‘ATI TURKIY” – FILOLOGIK-ENSIKLOPEDIK LUG‘AT  
(LUG‘ATDA GASTRONOMIK TERMINLARNING IFODALANISHI)

*Temirova Kamola Baxtiyor qizi*

*Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti*

*kamolatemirova28@gmail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Fazlullaxon Barlos qalamiga mansub “Lug‘ati turkiy” asarining leksikografiyaga qo‘shgan hissasi va asarda keltirilgan leksik birliklar, jumladan, gastronomik birliklarning leksikografik tadqiqi haqida fikr-mulohaza bildirilgan.

**Kalit so‘zlar.** Lug‘at, “Lug‘ati turkiy”, gastronomik birliklar, taom nomlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari, ash, ch‘yrk, bakuho, umaj va hokazo.

**Abstract:** This article provides feedback on the contribution of Fazlullah Barlos's "Lug‘ati Turkiy" to lexicography and the lexicographical study of lexical units, including gastronomic units, presented in the work.

**Keywords:** Dictionary, "Turkish Dictionary", gastronomic units, names of dishes, names of household items, ash, ch‘yrk, bakuho, umaj, etc.

**Аннотация:** В данной статье комментируется вклад произведения Фазлуллы Хана Барлоса «Лугати тюрки» в лексикографию и лексикографическое исследование лексических единиц, в том числе гастрономических, представленных в работе.

**Ключевые слова:** Словарь, «Словарь турецкого языка», гастрономические единицы, названия продуктов питания, названия предметов быта, аш, чырк, бакухо, умай и т.д.

XI-XIX asrlarda ko‘plab original, biri ikkinchisini takrorlamaydigan lug‘atlar yaratilgan. Ushbu lug‘atlar so‘zning asl va ko‘chma ma‘nolarini aniqlash, turkiy va turkiy bo‘lmagan leksik birliklarni belgilash hamda ularning etimologiyasi bo‘yicha qimmatli ma‘lumotlar beradi. Hindistonda XVIII asrda tuzilgan “Lug‘ati turkiy” o‘zbek lug‘atchilik tarixida alohida o‘rin tutatdi. Tarjima va o‘quv lug‘ati shaklida tuzilgan ushbu lug‘atning birinchi va oxirgi sahifasida qayd etilishicha, u hijriy 1193, milodiy 1779 yilda yaratilgn. Lug‘at oxirida Bangola shahrida tartib berilganligi qayd etilgan<sup>1</sup>.

“Lug‘ati turkiy” so‘zlarni sharhlash jihatidan o‘ziga xos tamoyilga ega. Masalan, “Badoyi ul-lug‘at” da so‘zlarning orfoepiya va orfografiyasi, talaffuz normalari ko‘rsatilgan bo‘lsa, “Abushqa” da o‘zbekcha so‘zlar turkcha-forscha izohlangan. “Sangloh” va “Muntaxabul-lug‘ot” da esa keng omma uchun tushunilishi qiyin so‘zlar sharhlangan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Умаров Э.А. Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент, 1992. – Б. 6

<sup>2</sup> Бу haqda qarang: Убайдуллаев А. “Луғати туркий” нинг лексикографик тадқиқи. Филол. Фан. Ном. ...дисс. Тошкент, 2011. 11-бет.

“Lug‘ati turkiy” ikki tilli turkiy-forsiy lug‘atlardan hisoblanadi. Lug‘at so‘zboshisida keltirilishicha “Lug‘ati turkiy” aslida fors tilida bitilgan bo‘lib, forsiy zabon kishilar uchun turkiy tiling fonetika, leksika, grammatikasi bo‘yicha qo‘llanma sifatida tuzilgan<sup>3</sup>.

O‘zbek tilshunosligida “Lug‘at-i turkiy”ga tegishli ilmiy-nazariy ma‘lumotlar A.A.Ubaydullayevning “Lug‘at-i turkiy”ning leksikografik tadqiqi” (2011) nomli ilmiy ishida o‘z ifodasini topgan. Ushbu tadqiqotda lug‘atda keltirilgan leksemalar leksikografik tadqiq qilingan, uning o‘zbek lug‘atchilik tarixida tutgan o‘rni ko‘rsatib berilgan.

A.A.Ubaydullayev lug‘atdagi so‘zlarni qadimgi turkiy til manbalari: DLT, “Attuhfa” kabi lug‘atlar bilan qiyoslab chiqqan. Natijada LT dagi bir qancha so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tiliga nisbatan unutilganligi haqida ham ma‘lumot berib o‘tadi. Lug‘atdagi turkiy so‘zlar ma‘no munosabatlariga ko‘ra 52 ta mavzuviy guruhlariga mansubligi aniqlandi. Asarda keltirilgan leksemalar kishi holati bilan bog‘liq leksemalar; rang-tus, masofa, hajm; o‘simliklar; o‘yin nomlari va ular bilan bog‘liq tushunchalar; chiroy, taqinchoq, bezak; kishi ismlari; parrandalarga oid so‘zlar; inson a‘zolari nomi; hid bildiruvchi so‘zlar; urug‘, qavm, qabila nomlari; oziq-ovqat, taom nomlari; harbiy sohaga oid so‘z va terminlar; uy-ro‘zg‘or buyumlari nomi va ularga doir so‘zlar; hayvon, uning a‘zolari va egar-jabduq nomlari; tabiat hodisalari, osmon jismlari nomlari; hisob so‘zlari, tartib, sanoq sonlar; qishloq xo‘jalik mahsulotlari va ular bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar; maza-ta‘m bildiruvchi so‘zlar; gidronimlar; vaqt, kecha-kunduz, hafta nomlari; ovchilikka oid narsalar nomi va ular bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar; insonning jinsiy a‘zolari va ular bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar; taom tayyorlash va unga aloqador so‘zlar kabi turli xil mavzuviy guruhlarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotimiz doirasida lug‘atda o‘rganilgan mavzuviy guruhlar ichida gastronomik birliklar (taom nomlari; oziq-ovqat mahsulotlari) ham mavjudligi ko‘zga tashlandi. O‘z o‘rnida gastronomik birliklar qatorini to‘ldiruvchi *oziq-ovqat, taom nomlari; uy-ro‘zg‘or buyumlari va ularga oid so‘zlar; maza-ta‘m bildiruvchi so‘zlar; uy-ro‘zg‘or buyumlari nomi va ularga oid so‘zlar, shuningdek, taom tayyorlash va unga aloqador so‘zlar guruhlarini o‘z tarkibiga gastronomik birliklarni birlashtirgan.*

**Oziq-ovqat, taom nomlari:** *ash* - nomi az taom (15a); *ash* – ovqat; ovqatning bir turi; ichimlik kabi ma‘nolarda kelishini MH (Muhabbatnoma), ANATIL, Rabg‘uziy va boshqa XIV - XV asr yodnomalarida ham uchrashi qayd etilgan.(84); *umach* - navi az taomi osh (14a); *ushak* - reza (16a); *ashliq* - g‘alla (16a), *ayran* - do‘g‘ (18b); *budalmaj* - qismi az non (21a), *chyrk* - non va bo‘sida (30a); *qabaq* - jug‘rot (38b), *qaq* - go‘шти xushk karda va bikuf va meva (39a), *qurma* - go‘sht baryon (40b);

**Maza-ta‘m bildiruvchi so‘zlar:** *qong* - shirin (39a); *qala qarcha* - shakar xo‘ra (40b), *uchash* - shira (15a), *taqir* - talx (25a), *chuchuk* - shirin (30a); *sanqur* - shakar (33b), *busrak* - navi az shirin (22b)<sup>4</sup>.

<sup>3</sup> Фаттоҳов Х.Луғатчилигимиз тарихидан// Ўзбек тили ва адабиёти . – Тошкент, 1982. - № 2. - 53

<sup>4</sup> Убайдуллаев А. “Луғати туркий” нинг лексикографик тадқиқи. Филол. Фан. Ном. ...дисс. Тошкент, 2011. 69-бет.

**Taom tayyorlash va unga aloqador soʻzlar:** *ashnamaq* – taom xoʻrdan va luqma xoʻronidanast (7b), *dagʻla* - dogʻ bikun (31 b); *jav* - ravgʻan (30b), *jiz* - kabob (29a), *suv* - ob (35b), *sogʻan* - piyoz (35b), *suyagʻi* - roʻvgʻan, siyoh va dahan (36 a); *dagʻlamaq* - dogʻ kardan (10 a), *may* - ravgʻan va charbih (45a), *yagʻla* - ravgʻan bimok (46b); *ochagʻ* - dekdon (15b); *bichaq* - kord (22a), *tuz* - mehan va namak (25a); *tatsiz* – bemaza (25a), *chagʻmur* - shalgʻam (29a)5. 70-bet

**Uy-roʻzgʻor buyumlari nomi va ularga oid soʻzlar:** *ayagʻ* – kosa (15b), *ogʻur*cha – hovoni (19a), *chömüch* – kavgiri xurd (29a);

A. Ubaydullayev ilmiy ishida Fazlullaxon Barlos soʻz maʼnolarini izohlashda asosan toʻrt usuldan foydalanganligini taʼkidlab oʻtadi6:

- 1) Ekvivalent yoʻli bilan; 2) Kengroq izohlash; 3) Umumiy izohlash: ömäch soʻzini Fazlullaxon barlos umumiy qilib *navi az taom* deb qoʻya qolgan (97);
- 4) Qoʻshimcha ravishda hindcha soʻzlar bilan izohlash.

Fazlullaxon barlos ayrim soʻz maʼnolarini ochishda qoʻshimcha ravishda hindcha soʻzdan foydalanadi. Masalan. Kabob maʼnosidagi *jiz* soʻzini izohlar ekan, qoʻshimcha ravishda hindcha **bakuhor** soʻzini keltiradi:

Ba tarqiqi kasrai jim va sukuni zo kabob v aba fathai va tashdidi zoyi moʻjama ravgʻan baryon kardanki ba hindi bakuhor goʻyand.

Tarjimasi: *jiz* – j qisqai bilan, z ustiga sukun, forscha kabob, hindcha bakuhor. (98-bet).

“Lugʻati turkiy” da omonimlarni izohlash usullari ham koʻrsatilgan boʻlib, lugʻatshunos salafлари izidan borib, omonim soʻzlarni alohida-alohida lugʻat maqolasi sifatida bermaganligini taʼkidlab oʻtadi. Lugʻatda ayrim gastronomik birliklar omonimiyasi haqida ham maʼlumot qodirilgan. Jumladan, **LT** da **tuz** soʻzi uch maʼnoli leksik birlik sifatida qoʻllangan boʻlib **tekis**, **tjz** va **namak** maʼnosidagi tuz omonimlari ham bir luʻat maqolasi ichida berilgan.

Ushbu leksema **ANATIL** da shunday izohlangan: *tuz I* – toʻgʻri, rost, kelishgan; *tuz II* osh tuzi; *tuz III* tekislik, tekis yer; oʻq, nayza kabi toʻgʻri narsa (predmet)7.

“Lugʻati turkiy” dagi aksariyat turkiy soʻzlarni unutilgan soʻzlar qatoriga kiritish mumkin. Bunday soʻzlarning isteʼmoldan chiqishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, oʻsha davrdagi turkiy xalqlarning mavqei, fan va texnikaning taraqqiyoti kabi oʻzgarishlar bilan bogʻliq. Shuni qayd etish lozimki, hozirgi oʻzbek adabiy tiliga nisbatan unutilgan bunday soʻzlarning maʼlum bir

5 Ubayдуллаев А. “Луғати туркий” нинг лексикографик тадқиқи. Филол. Фан. Ном. ...дисс. Тошкент, 2011. 70-бет.

6 Ubayдуллаев А. “Луғати туркий” нинг лексикографик тадқиқи. Филол. Фан. Ном. ...дисс. Тошкент, 2011. 96-бет.

7 Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983-1985. III том. 251-252- б б



qismi qardosh turkiy tillarda yoki o'zbek tilining ba'zi shevalarida qo'llanadi. Jumladan."Lug'ati turkiy" dagi ayrim gastronomik birliklar: *umaj* (14a) -ovqatning bir turi, *alg'unchaq* (16a)- pichoq, *bavurchi* (23b) - oshpaz, *chamg'ur* (29a) – sholg'om, *chyräk* (30a) - non, *sanqur* (33b) - shakar, *suqum* (35) - suv, *qong* (39a) - shirin, *yumurqa* (49b) -tuxum. Lug'atda qo'llanilgan yumurqa so'zi ayni paytda Xorazm shevalarida yimirta// yimirtqa tarzida qo'llaniladi<sup>8</sup>.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, lug'atni o'rganish asnosida shu narsa ma'lum bo'ldiki, unda izohlangan leksemalarning genetik jihatdan asosan sof turkiy birliklardan tashkil topganligining guvohi bo'ldik. So'zlarni mavzu jihatdan o'rganish shuni ko'rsatadiki, lug'atdagi leksemalar orqali tilimizda qanday o'zgarishlar bo'lganligi, ularning avvalgi ma'nosi bilan hozirgi ma'nosi o'rtasidagi o'xshashlik va farqli jihatlar haqida ham ma'lumot olish mumkin. Xususan, *gastronomik birliklar: oziq-ovqat nomlari va taom nomlari, maza-ta'm ifodalovchi birliklar* bilan tanishish orqali turkiy xalqlar yashagan davr, ular foydalangan so'zlar haqida ham tarixiy, ham geografik, ham lingvistik ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda "Lug'ati turkiy" ni filologik-ensiklopedik lug'at deb atash mumkin. Unda keltirilgan gastronomik birliklar ideografik lug'at yaratilishiga asos bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Умаров Э.А. Эски ўзбек луғатлари. – Тошкент, 1992. – Б. 6
2. Убайдуллаев А. “Луғати туркий” нинг лексикографик тадқиқи. Филол. Фан. Ном. ...дисс. Тошкент, 2011. 11-бет.
3. Фаттоҳов Х.Луғатчилигимиз тарихидан// Ўзбек тили ва адабиёти . – Тошкент, 1982. - № 2.- 53
4. Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983-1985. III том. 251-252- б б

---

8 : Убайдуллаев А. “Луғати туркий” нинг лексикографик тадқиқи. Филол. Фан. Ном. ...дисс. Тошкент, 2011. 64-65-бет.